

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEJAMKORLIK  
XISLATLARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI INSONPARVARLIKNI  
RIVOJLANTIRISH

**Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti Boshlang'ich ta'lim  
pedagogika kafedrasini mudiri. PhD. dotsent

**Xudoyberdiyeva Dildora Shopo'lat qizi**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistri

**Annotatsiya:** Mazkur tezida texnologiya darslari jarayonida o'quvchilarda tejamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish orqali insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ta'lim jarayonida resurslardan oqilona foydalanish, mehnatga ongli munosabat va ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya ta'limi, tejamkorlik, insonparvarlik, tarbiya, ijtimoiy mas'uliyat, ekologik madaniyat.

**Annotation** This thesis addresses the issues of developing humanistic qualities in students by forming economical skills during technology lessons. It analyzes the pedagogical opportunities for fostering the rational use of resources, a conscious attitude toward labor, and social responsibility within the educational process.

**Key words:** technological education, economy, humanitarianism, education, social commitment, ecological culture

**Аннотация:** В данной диссертации освещаются вопросы развития гуманистических качеств у учащихся посредством формирования навыков бережливости в процессе уроков технологии. Проанализированы педагогические возможности воспитания рационального использования ресурсов, осознанного отношения к труду и социальной ответственности в образовательном процессе

Bugungi kunda ta'lim tizimida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Texnologiya darslari bu borada katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lib, ayniqsa tejamkorlikni o'rgatish orqali insonparvarlik sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki biz bilamizki biror narsa yasaganda doim parchalar, qiyqimlar qoladi. Qog'oz bo'laklaridan, tuxum po'chog'idan somon mevalardan chiqqan danak va urug'laridan oqilona foydalanishga o'rganadilar bu esa sekin astalik bilan bolani tejamkorlikka o'rgatadi.

Texnologiya darslari haqida gap ketganda inson xayoliga birinchi navbatda ijodkorlik keladi. Chunki oddiy narsalardan ketma-ketlikda foydalanib juda go'zal va foydali narsani yaratish mumkin.. Hozirgi kunda texnologiya darslarida juda ko'p yangiliklar kirib kelmoqda shu bilan birgalikda isrofgarchilikka ham yo'l qo'ymaslikka e'tibor qaratilmoqda, bunga misol qilib turli mazaikalarni olishimiz mumkin. Bunda o'quvchilarda tuxum po'chog'i, meva danagi, somon va qush patlarini isrof qilmasdan saqlab qayta ishlatish ko'nikmalari shakllanadi.

"Texnologiya" so'zi yunoncha "techne" (san'at, mohirlik) so'zidan olingan bo'lib, ma'lum bir mahsulot yaratish, uni qayta ishlash yoki xizmat ko'rsatish uchun qo'llaniladigan usullar, vositalar, uslublar va ularni ishlab chiqish va joriy qilish bilan shug'ullanadigan fan majmuasini anglatadi. Bu jarayonlar sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqa sohalarda xomashyoni

o'zgartirish yoki ishlov berishni o'z ichiga oladi, bundan tashqari ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullarini ham qamrab oladi.

Texnologiya fanini o'rganish jarayonida ham texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilish zarur. Masalan, o'quvchi dars jarayonida qog'ozni qirqish, buklash, yelimlash, kleydan esa turiga qarab ehtiyotkorlik bilan o'qituvchi yordamida foydalanish kerak va qo'llarini darrov yuvib tashlash kerak chunki beixtiyor biror joyiga tegib ketishi mumkin, qaychidan ehtiyot bo'lib uchi uchlimas turlaridan foydalanish kerak uni sherigiga uzatayotganda uchli tarafini o'ziga qaratib uzatishi lozim va yana boshqa vositalaridan to'g'ri foydalanish texnikasi va gigiena qoidalari bilan tanishilgan bo'lishi kerak. Bu har dars jarayonida o'qituvchi tomonidan takrorlanib borilishi lozim.

Texnologiya darslarida xomashyo va materiallardan oqilona foydalanish, ortiqcha isrofga yo'l qo'ymaslik, buyumlarni qayta ishlab va qayta foydalanish jarayonlari o'quvchilarda tejamkorlik tushunchasini shakllantiradi. Shu bilan birgalikda o'quvchilar keraksiz buyumlardan va turli xom ashyolardan har xil buyumlar yasashni o'rganadilar. Bu esa ularda tejamkor bo'lish bilan bir qatorda ijodkorlikni ham rivojlantiradi. O'z navbatida atrof-muhitga, jamiyat boyligiga va inson mehnatiga nisbatan hurmat va mas'uliyat hissini kuchaytiradi va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikni o'rganadilar.

Tejamkorlik orqali o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini, ya'ni boshqalarning mehnatini qadrlash, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish, ekologik muammolarga befarq bo'lmaslik kabi sifatlar rivojlanadi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida jamoa bilan ishlash, o'zaro yordam va hamkorlikni yo'lga qo'yish ham insonparvarlik tarbiyasiga xizmat qiladi. Ayniqsa, amaliy va jamoaviy faoliyat jarayonlari bu fazilatni tarbiyalashda samarali hisoblanadi. Har bir bolaning o'ziga xos xarakter bor, kimdir hamma bilan chiqishadigan bo'lsa yana kimdir faqat yakkalikni ustun biladigan bo'ladi. Jamoa bilan ishlaganda bola o'zidan boshqalarni ham o'ylashni, o'zgalarni fikrini eshitishni o'rganadilar. Shu orqali ularda faqat men degan tushunchadan qisman xalos etish mumkin.

Texnologiya darslari o'quvchilarni amaliy mehnatga tayyorlaydi. Texnologiya darslari umumiy o'rta ta'lim maktablarida quyidagicha taqsimlanadi. 1-4 sinflar uchun :

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
2. tabiiy va turli materiallar bilan ishlash.
3. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash
4. Badiiy qurush -yasash va texnik modellashtirish

5-7 sinflar uchun:

1. Texnologiya va dizayn yo'nalishi .
2. Servis xizmat yo'nalishi.

Bu darsliklarni mukammal o'rgangan o'quvchilar bilimlarini hayotta hech qiynalmasdan foydalanadilar, vatan ravnaqiga o'z hissalarini qo'sha oladilar. Texnologiya darslari amaliy bajariladigan fan bo'lgani sababli noan'anaviy va aralash dars sifatida o'tiladi. Bu esa o'quvchilarda katta qiziqish orttiradi. O'quvchilar kelajakda qanday kasb egasi bo'lishi nomalum paytdanoq bu fan ular hayotida paydo bo'ladi. darslikdagi mavzular hamma o'quvchilar uchun bo'lsada qizlar va bolalarning mavzuga yondoshishi har xil bo'ladi chunki biz bilamizki qiz bolalar tikish- bichishni, salatlar tayyorlash, gullar tayyorlash va boshqalarni, o'g'il bolalar esa moshina yasashni, uylar yasashga qiziqadilar. Kelajakda qanday kasb tanlashsa ham bu darslikda o'rganilgan narsalar inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya darslarida tejamkorlikka yo'naltirilgan ta'limiy va tarbiyaviy yondashuv o'quvchilarda insonparvarlik tarbiyasi shaxsda barkamollikni ta'minlaydi hamda jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga xizmat qiladi .ijtimoiy mas'uliyat va ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali vositasi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari. **Ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga oid hujjatlar.**
  2. O'zbekiston Respublikasi **"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.** – Toshkent, 2020.
  3. Hasanov S., Xolmatov B. **Texnologiya ta'limi metodikasi.** – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
  4. Abdullayeva M. **Mehnat va texnologiya ta'limida tarbiyaviy ishlar.** – Toshkent, 2018.
  5. Jo'rayev R.H. **Ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya.** – Toshkent: Fan, 2017.
  6. Qodirov A. **Ekologik madaniyat va tejamkorlik asoslari.** – Toshkent, 2020.
  7. Umumta'lim maktablari uchun **Texnologiya fani o'quv dasturi va darsliklari.** – Toshkent, 2022.
  8. Ismoilova N **Insonparvarlik pedagogikasi asoslari.**-Toshkent:Fan va texnologiya ,2021-132b
  9. Zunnunov A. O'quvchilarda iqtisodiy va tejamkorlik tarbiyasini shakllantirish- Toshkent,2019.-98b
- Internet manbalari:  
pedagogik va metodik maqolalar  
([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz), [www.edu.uz](http://www.edu.uz)).